



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

### TIL SATHLARIDA SO'Z MA'NOLARI INTENSIVLIGINING IFODALANISHI

A.A Haydarov  
(*BuxDu, professor*)  
Sharipova Feruzabonu  
(*1-kurs talabasi*)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada til sathlarida intensivlik kategoriyasining ifodalanishi haqida fikr yuritilgan. Ingliz va o'zbek tillari misolida intensivlikning fonetik, morfologik, leksik va sintaktik vositalar yordamida qanday ifodalanishi badiiy asarlardan olingan misollar asosida tahlil etiladi, hamda intensivlik kategoriyasining til birliklaridagi roli ochib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tilshunoslik, intensivlik kategoriyasi, fonetik, morfologik, leksik, sintaktik.*

**Abstract.** *This article discusses the representation of the category of intensity across language levels. Using examples from English and Uzbek, the study analyzes how intensity is expressed through phonetical, morphological, lexical, and syntactic means.*

**Keywords:** *linguistics, category of intensity, phonetical, morphologic, lexical, syntactical.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматривается выражение категории интенсивности на языковых уровнях. На примере английского и узбекского языков анализируется, как интенсивность выражается с помощью фонетических, морфологических, лексических и синтаксических средств.*

**Ключевые слова:** *лингвистика, категория интенсивности, фонетических, морфологический, лексический, синтаксический.*

Tilshunoslikda intensivlik kategoriyasi masalalari qadimdan tadqiqotchilar diqqatini jalb etib kelmoqda. Bu borada turli qarashlar, nazariyalar paydo bo'lgan bo'lsada, XIX asrning 60-yillaridan keyin bu sohadagi ilmiy izlanishlarga e'tibor kuchaydi. Intensivlik masalasida bir qator olimlarning ilmiy ishlari e'lon qilindi. Jumladan, G. Kirxner, B. Charleston, S. Grinbaum, D. Bolindjer, Sh. Balli, A.V. Kunin, V.A. Maltsev, T.A. Tsoy, N.P. Troshina kabi olimlar o'z tadqiqotlarida intensivlik tushunchasiga turli aspektdan turib yondashganlar.

A. B. Kunin ingliz tilshunosligida intensivlik hodisasini frazeologik nuqtai-nazardan tahlil qilib, kuchli emotsiyalar ifodalovchi frazeologik birliklar ko'p hollarda fikrni emotsional ekspressiv ifodalashni qayd etadi. A.B. Kunin intensivlik kategoriyasining frazeologik ifodalanishiga katta e'tibor beradi. Uningcha, intensivlik sinonimik ketma-ketliklarda kuchaytiruvchi elementlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, "stone-cold" va "crystal-clear" kabi ifodalar til birliklarining intensivligini kuchaytiradi. Kunin bu kategoriyaning o'xshashlik va kuchaytirishdagi rolga urg'u beradi [1; 34]. Y.I. Sheygelning tadqiqotlarida esa intensivlik kategoriyasining semantik maqomini aniqlashga harakat qilingan. Y. I. Sheygal intensivlik kategoriyasini madaniy va psixologik nuqtayi nazardan baholaydi. U intensivlikni inson hissiy reaksiyalarini ifodalashda muhim vosita deb hisoblaydi. Sheygalning tadqiqotlariga ko'ra, intensivlik kuchaytiruvchi leksik birliklar va intonatsion vositalar orqali ko'rinadi, masalan, "совсем" (butunlay) yoki "очень" (juda)



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

so'zlari rus tilida intensivlikni kuchaytiradi [2; 122] Tilshunoslikda intensivlik kategoriyasi til birliklarining kuchayish yoki kuchsizlanish darajasini ifodalaydi. Bu kategoriya tilning morfologik, leksik va sintaktik sathlarida ifodalanishi mumkin. I.Y. Bruchashvilining ilmiy tadqiqotlarida intensivlik kategoriyasining leksik vositalar bilan ifodalanishiga e'tibor qaratilgan bo'lib, bunday intensivlik kategoriyasi "aniqlovchi-aniqlanmish" tipidagi model bo'yicha o'rganiladi. Shuningdek, tilshunos rus tilidagi intensivlikni leksik va morfologik sathlarda o'rganib, ko'proq kuchaytiruvchi sifatlar va ravishlar orqali ifodalanishini ta'kidlaydi. I.Y Bruchashvili bu kategoriyani morfologik shakllar, masalan, "супер-" qo'shimchasi orqali kuchaytiradi, misol uchun, "супербыстрый" (o'ta tez) kabi [3; 67].

O'zbek tilshunoslari A. Abdullayev va M. Yo'ldoshev o'zbek tilida intensivlikni takroriy shakllar va kuchaytiruvchi qo'shimchalar yordamida ifodalash mumkinligini ta'kidlashadi. Ular misollar orqali o'zbek tilida sifatlar va fe'llarning takroriy shakllari, masalan, "katta-katta", "tez-tez" orqali kuchayish ko'rsatkichlari oshishini ko'rsatishadi [4; 35-40]. Bu o'rinda fonetik usuldagi ma'no kuchaytirishda unlini kuchli talaffuz qilish, unlini cho'zib talaffuz qilish orqali tovushni ikkilantirish hodisasi ro'y beradi. morfologik usulda esa -lar suffiksining faolligi qayd etiladi [6; 122]. Xuddi shu hodisani ingliz tilida ham uchratishimiz mumkin, so'z tarkibidagi unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilish, ularni takror qo'llash yoki undosh tovushlarni ikkilantirish orqali ham ma'no kuchaytirish kuzatiladi.

Masalan, -Don't tell him about this event.

-Do-o-o-o-on't tell him about this event, please.

Misolida "o" unlisining cho'zib talaffuz qilinishi natijasida iltimos, yalinish kabi konnotativ ma'nolarining ifodalanganligini kuzatishimiz mumkin.

I - I - I'm terribly sorry my dear, sir. I mean madam. -I - I - oh , God. (R.Jordon). Ushbu misoldagi I - unlisining takrori nutqiy parchada yalinish, iltimos kabi konnotativ ma'nolarni ifodalaganini ko'rish mumkin. Tilshunoslikda intensivlik tushunchasi haqida turli xil qarashlar mavjud. Ko'pgina tilshunoslari ushbu tushunchaga miqdor kategoriyasining bir ko'rinishi sifatida qaraydilar. Ular intensivlikni semantik kategoriya deb hisoblab, uning asosida miqdor tushunchasini ma'nodagi gradatsiyasi yotishini e'tirof etadilar. Dunyo tilshunolarining fikrlariga e'tibor qaratilsa, fransuz olimi Sh. Balli bu tushunchaga kengroq yondashganligini ko'rishimiz mumkin. Leksemalarning ekspressivlik darajasini aniqlash zaruriyati esa o'z navbatida "intensivlik shkalasi" kabi tushunchani iste'molga kiritilishini taqozo etadi. Ingliz tilida quyidagi so'z birikmalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, tarkibida kuchaytiruv ravishining kiritilishi natijasida intensivlik kuchayib boradi. Masalan, to be in love - to be really and truly in love with somebody - to be terribly in love with somebody - to love somebody madness (death) [ 8; 44-46] .

Intensivlik tilning turli sathlarida namoyon bo'lishi mumkin. Kuzatuvlardan ma'lum bo'ldiki, sifat, ot, fe'l so'z turkumlariga quyidagi prefikslarni qo'shish orqali ma'no kuchayishini kuzatish mumkin, super-, hyper-, out-, over-, ultra-, extra-, multi-, up-, upper-, mega-, micro-, mini-, is-, dis- va hokazo.

Masalan, superfood- a food which is considered very useful for your health. Supercomputer- a very powerful computer that can deal with large amount of information very



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"

quickly. Outlast- to last longer. Overbook- to sell more tickets than you available. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, morfologik usulda ma'no kuchaytirish ot, sifat, fe'l so'z turkumlarida boshqa so'z turkumlariga qaraganda ancha sermahsul [7; 19-21] .

### Leksik Darajada Intensivlik

1. Very big - juda katta. Bu erda "very" kuchaytiruvchi so'z sifatning intensivligini oshiradi.
2. Absolutely perfect - mutlaq mukammal. "Absolutely" so'zi "perfect" sifatini kuchaytiradi

va hissiy ta'sirni oshiradi.

1. Nihoyatda chiroyli - juda chiroyli. "Nihoyatda" kuchaytiruvchi so'z sifatga katta ta'sir beradi.

2. O'ta qattiq - juda qattiq. Bu misolda "o'ta" so'zi kuchaytiruvchi sifatida ishlatilgan.

### Morfologik Darajada Intensivlik

1. Superfast - juda tez. Bu erda "super-" qo'shimchasi intensivlikni oshiradi.

2. Unbelievably good - ishonib bo'lmas darajada yaxshi. "Unbelievably" so'zi kuchaytiruvchi vazifasini bajaradi.

1. Ulug'vor - juda katta. Bu so'z o'zbek tilidagi yuksak darajadagi sifatni ifodalash uchun ishlatiladi.

2. Katta-katta - juda katta. Bu takroriy shakl sifatni kuchaytiradi va katta hajm yoki darajani ifodalaydi.

### Sintaktik Darajada Intensivlik

1. He was so incredibly talented that everyone was amazed - U shunchalik mohir ediki, hamma hayratda edi. Bu erda "so incredibly" intensivlikni oshirish uchun ishlatilgan.

2. U nihoyatda jasur ediki, hamma unga qoyil qolar edi - Bu misolda "nihoyatda jasur ediki" sintaktik darajada intensivlikni kuchaytiradi.

Til sathlarida intensivlik kategoriyasi xilma-xil usullar orqali ifodalanadi. Ingliz, o'zbek va rus tillarida intensivlik kategoriyasi morfologik, leksik va sintaktik vositalar yordamida ifodalanib, tilning ekspressiv imkoniyatlarini kengaytiradi. Til sathlaridagi bu kategoriya o'zining morfologik va leksik shakllari orqali hissiy va emotsional ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilganda, intensivlik ya'ni ma'no kuchaytirish semantik kategoriya bo'lib, so'z semantikasining kelib chiqishiga asosiy sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, intensivlik ekspressivlikning o'lchamini belgilaydi. Tilning boshqa sathlarida ma'no kuchaytirish haqida keyingi ishlarimizda alohida fikr yuritamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кунин, А.Б. (1986). Английская фразеология: Теоретический и основ. Москва: Высшая Школа. 34-б.

2. Шейгал, Э.И. (2004). Семиотика политического дискурса. Москва: Гносис. 122-128-б.

3. Бручашвили, И.Г. (1992). Интенсификация в современном русском языке. Санкт-Петербург: Издательство СПбГУ. 67-73-б.



## **"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2024"**

4. Abdullayev, A. (2009). O'zbek tilida sifat va fe'llar darajasi. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti. 35-40-b.
5. Yo'ldoshev, M. (2015). O'zbek tilining leksik-semantik kategoriyalari. Toshkent: Yangi asr avlodi. - B .82-90.
6. Abdullayev, A. Hozirgi o'zbek tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usuli.f.f.n dissertatsiyasi.-T.:1978. - B. 122.
7. ZiyayevA. Ingliz tilida so'z ma'nolarini kuchaytirishning kognitiv talqini. Farg'ona 2011. - B.19-21.
8. Solixo'jayeva S. Emotsionallikni ifodalovchi vositalar. //O'zbek tili va adabiyoti. 1979. - B. 44-46.